



ONA TILI DARSLARIDA NOAN'ANAVIY TA'LIM METODLARINI JORIY ETISH ORQALI MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Akmaldinova F.I.

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: pedagogik texnologiya, ona tili, mantiqiy fikrlash, mahorat, mantiq, didaktik o'yinli texnologiyalar, malaka, ko'nikma.

Ключевые слова: педагогическая технология, родной язык, логическое мышление, умение, логика, дидактические игровые технологии, компетентность, умение.

Key words: pedagogical technology, native language, logical thinking, skill, logic, didactic game technologies, competence, skill.

Mantiqiylik, ya'ni to'g'ri fikrlash sog'lom ong egasi bo'lmish har bir inson uchun xosdir. Bu qonuniyatni buzmay fikrlash uchun, albatta, mantiq kurslarida tayyorlanish shart emas. Lekin mutaxassis-adabiy xodim, jurnalist yoki o'qituvchi uchun bu zaruriy manbadir. Mantiqiy fikrlash ularning faoliyatida nihoyatda chuqur va takomillashgan, shu bilan birga puxta egallangan vosita bo'lib xizmat qiladi. Insonning mantiqiy fikrlashi, tafakkuri qanchalik yaxshi bo'lsa, u tashqi dunyo va boshqa odamlar bilan shunchalik samarali munosabatda bo'ladi, har qanday holatda o'z fikrini erkin bildira oladi.

Globalashuv va axborotlar ko'lami kengayib borayotgan hozirgi davrda mohir mutaxassislardan tortib maktab o'quvchilarida ham mantiqiy fikrlashni oshirish va bu orqali bola ongida individual fikrni o'stirish muhim masala hisoblanmoqda. Bunda, asosan, maktab darsliklarida mantiqiy fikrlashni o'stiradigan matnlar ustida ishlash samaralidir. Keyingi yillarda ona tili ta'limida matn vositasida mantiqiy fikrlash va o'z fikrlarini og'zaki shaklda erkin va ravon ifodalashga alohida e'tabor qaratilmoqda.

Xususan, maktab darsliklarida matn ustida ishlash, mustaqil fikrlash, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish yo'lga quyilmoqda. Matnlar orqali mantiqiy fikrlashga undash va bundan yuqori natijaga erishish konsepsiyalari



ishlab chiqilmoqda. Shu jumladan, ona tili fani o'zining o'quv dastur rejasiga "Matn va lug'atlar ustida ishlash", "Tahliliy o'qish" mavzularini kiritgan. Bu mavzular yangi darsliklardagi matnlarni tinglab tushunish, o'qib tushunish, nutq so'zlash, yozish va mantiqiy fikrlash tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy mavzulardir.

Har qanday matnni, u xoh adabiy asar bo'ladimi, xoh ommaviy axborot vositalari matni bo'ladimi, uni baholay olish, mantga individual fikr bera olish mahoratiga ega bo'lish o'quvchilardan talab etiladi. Har kim ham narsa, voqea va hodisalarning o'ziga xos jihatlarini ilg'ab olavermaydi, ularni boshqa jihatlari orasidan ajratib, alohidalab ko'rsata olmaydi. Lekin shunga qaramay buni o'quvchiga o'rgatish zarurdir. O'quvchi matndagi mantiqiy bog'liqliklarning muhim ekanligini aniq idrok eta olishi, mantiqiy tahlil usullari va yo'sinlarini yaxshi tushuna olishi kerak. Mantiqiy fikrlash - fikrlarning oliy pog'onasidan biri bo'lib, izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog'lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faoliyatining muhim qirrasini o'zida aks ettiradi. Demak, mantiqiy fikrlash - inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglab olingan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etishini anglatadi. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan jamiyatda yoshlarni mustaqil va mantiqiy fikrlashga o'rgatish zarur. Shu sababli darsliklarda matnlar va mantga doir topshiriqlar ko'paymoqda. O'zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishi N.M.Turniyozov, E.Qilichev, A.Mamajonov, M.Hakimov, M.Yo'ldoshev, S.Boymirzayevlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, oldingi darsliklarda ko'proq grammatik mashqlar va grammatik qoidalar ko'p edi, o'quvchi tayyor qoidalar asosida ishlash bilan cheklanib qolgan edi. Vaholanki, mustaqil fikrlashga darsda deyarli vaqt yetmas edi. Hozirgi vaqtga kelib matnlarimizni tahlil qilishda, og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda matnni o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozma savodxonlik kabi tamoyillardan foydalanilmoqda. Bulardan o'qib tushunish o'quvchini ko'proq o'ylashga, fikrlashga undaydi.

Inson o'zini, ichki dunyosini, tafakkurini, fikrlashini o'stirishida mantiqiy fikrlash tamoyillari katta yordam beradi. Bu usul orqali shaxs psixologiyasini boshqarish mumkin. Matn vositasida mantiqiy fikrlash o'sib borar ekan, bu o'quvchilar ongini yanada shakllantiradi va kelajakda individual shaxs bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltirish: mustaqil ravishda xulosa chiqarib, muammolarini sintez qilish, tasniflash imkonini beradi.



Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, topshiriqlarda barcha o'quvchilar oldiga qo'yilgan talab bir xil, ammo o'quvchilarning saviyasi bir xil emas. Tabiiyki, topshiriqlarni hamma bir xilda to'g'ri bajara olmaydi. Bunday holda qo'shimcha topshiriqlar berish orqali mashq shartini soddalashtirish yo'li bilan o'quvchilarni qiziqtirish mumkin. O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda ular nutqini narsa va shaxslarni bildirgan so'zlar bilan boyitish ham muhim rol o'ynaydi.

Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham Milliy o'quv dasturiga ko'ra o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishga e'tibor beriladi va sinflar kesimida amalga oshiriladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa



oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi.

Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga til namunalari berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta’lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Nutq o‘stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya’ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o‘rgangan til vositalaridan foydalanib, o‘z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish o‘z metodik vositalariga ega, o‘zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog‘lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq o‘stirishda izchillik to‘rt shartni, ya’ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo‘ysundirish ko‘nikmasini amalga oshirish bilan ta’minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog‘lanadi va keyingisiga o‘quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo‘ysungan holda yana qandaydir yangilik qo‘shadi. Maktabda o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o‘stirish faqat ona tili darslarininggina emas, balki o‘quv rejasidagi barcha fanlar (tabiiy fanlar, matematika, texnologiya, tasviriy san’at, musiqa darslari) ning, shuningdek, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir. O‘quvchilar nutqini o‘stirish boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi.

«Mantiqiy fikrlash» – bu sabablarini ta’kidlab mavjud ma’lumotlarni qayta ishlash. Inson allaqachon mavjud bo‘lgan bilimlarni ma’lum bir ketma-ketlikda qayta ishlash orqali foydalanadi. Ushbu fikrlash natijasida ma’lum bir vazifa uchun eng to‘g‘ri yechimini topadi. Mantiqiy fikrlash bu vaqt imkoniyati yo‘q bo‘lganda muammoni tezda hal qilish yo‘lini belgilab berauvchi qobiliyat. O‘quvchilarda mantiqiy fikrlashning rivojlanishi kattalardagi kabi jarayonni talab qiladi. O‘quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish uchun masalalardan keng foydalaniladi. Sodda va qisqa mazmunli masallar mantiqiy



fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ona tili darslari qiziqarli bo'lishi bilan birga biroz murakkab, hayotda esa har jabhalarda kerak bo'ladigan fan hisoblanadi. Asar o'qish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini boyitadi. Hikoya, masal, she'rning mazminini to'g'ri idrok etish, shuningdek, matnning hissiy ta'sirini oshirish uchun ifodali o'qish katta ahamiyatga ega.

Muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u o'quvchiga qo'yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy-ijodiy tafakkur yuritish, jadal va mantiqli fikrlash, so'z va atamalar, asar g'oyasi hamda ma'nosini o'zaro qiyoslash, o'zi uchun eng to'g'ri yechim tanlash imkoniyatlarini beradi. Bu texnologiya o'quvchining imkoniyatlaridan o'zaro uzviylik va uzluksizlikdan foydalanish, izchil va mantiqiy fikrlash darajasini yaxshilaydi. O'rganuvchi sub'ektning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste'dod qirralarini ochishga yo'naltiradi.

Texnologiyaning afzalliklari. O'quvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko'nikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni. mantiqiy fikrlashni o'rganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o'rganadi.

Kamchiliklari. Vaqt ko'p sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari to'liq inobatga olinmasligi mumkin. O'zaro bir to'xtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi va h.k.

Muammoli vaziyat va muammoning bayoni. Tafakkur - inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo'lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi hamda muammoni yechishga qaratilgan bo'ladi.

Muammoning qo'yilishi. Muammoning bir necha yechim yo'llari mavjud ekanligi va ular ichidan eng optimal variantini tanlash shuningdek, muammoning yechimini topish. Muammoli vaziyatni shakllantirish tamoyillari.

Muammoli o'quv toshiriqlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi orqali o'quvchilarni turli muammolardan chiqib ketish yo'llarini axtarishga, kezi kelganda ana shu muammoning yechimini topishga yo'naltirish lozimligi tushuntiriladi.

Xulosa. Pedagogning mahorati ta'sir etishning to'g'ri yo'lini tanlashdir. O'quvchi uchun qulay psixologik iqlim yaratish, uning individual xususiyatini rivojlantirish, ijtimoiy minosabatlarni shakllantirish va mustahkamlash yosh avlodni kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagog yoshlarga ta'lim berib tarbiyalaydi, tarbiyalab ta'lim beradi. O'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til



materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne'matov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun "Ona tili" darsligi. Cho'lpon-2019.
2. M.Qurbonova, M.Yo'ldoshev. Matn tilshunosligi. Toshkent-2014.
3. A.Shorahmedov, M.N.Aminov, A.Niyozov. O'zbek tilining izohli lug'ati (I,II,III,IV,V jildi). Toshkent. 2005-2008.
4. A'zam Xoliqov. Pedagogik mahorat.Tafakkur bo'stoni. Toshkent-2011. 5. Mantiqiy fikrlash. Hiddeshell.
5. G.Ernazarov. Ona tili o'qitish metoikasi. –Toshkent, 2017 yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ona tili darslarida mantiqiy fikrlash haqida so'z yuritilgan. Ta'lim tizimida o'qituvchilar tomonidan noan'anaviy ta'lim metodlari joriy etilib, o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlari keng qo'llanilmoqda. Zamonaviy metod va usullarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An'anaviy o'qitish jarayonida asosan o'qituvchi darsni olib borsam, noan'anaviy o'qitish jarayonida esa o'quvchi shaxsiga erkinlik berish, uning mantiqiy fikrlashi, munosabatlarni demokratlashtirish asosida dars jarayonlari tashkil etiladi. Bunda ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanish ham muhim o'rin tutadi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассказывается о логическом мышлении на уроках родного языка. В систему образования учителями внедряются нетрадиционные методы обучения, широко используются современные формы и методы обучения. Использование современных методов и методов приводит к высокой эффективности учебного процесса. В традиционном учебном процессе урок ведет учитель, тогда как в нетрадиционном учебном процессе процессы урока организуются на основе предоставления свободы личности ученика, его логического мышления, демократизации отношений. Также важно использование игр в образовательном процессе.

SUMMARY

This article talks about logical thinking in mother tongue classes. In the educational system, non-traditional educational methods are introduced by teachers, and modern forms and methods of teaching are widely used. The use of modern methods and methods leads to high efficiency in the teaching process. In the traditional teaching process, the teacher conducts the lesson, while in the non-traditional teaching process, lesson processes are organized on the basis of giving freedom to the student's personality, his logical thinking, democratization of relations. The use of games in the educational process is also important.